



OLIY TA'LIM TIZIMINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

*Andijon davlat chet tillari instituti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Asliddin Isomiddinov Baxridin o'g'li

Andijon davlat chet tillari inistituti

Xoriy til va adabiyoti (ingiliz tili) ta'lif yo'nalishi talabalari

Botiraliyeva Shaxzoda Asilbek qizi

Anorboyeva O'g'iloy Azamjon qizi

Annotatsiya: maqolada O'zbekiston oliy ta'lif tizimidagi dolzarb muammolar, ularning asosiy sabablari va ularni hal qilish yo'llari tahlil qilinadi. Jumladan, oliy ta'limga bo'lgan talabning ortishi, o'qituvchilar malakasining yetarli emasligi, ilmiy-tadqiqot ishlarining sustligi, korrupsiya muammolar va amaliyot yetishmovchiligi singari muammolar yoritilgan. Tahlil qilingan statistik ma'lumotlar asosida maqola ilmiy-analitik yondashuvda yozilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy-tadqiqot, innovatsiya, oliy ta'lif, muammo, ta'lif sifati, korrupsiya, universitet, yechim.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, oliy ta'lif tizimini modernizatsiya qilish va jahon standartlariga moslashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lifni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lifni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lif texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida:

oliy ta'lif muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga



o‘tkazish va moliyaviy barqarorligini ta’minalash[1] uchun so‘nggi yillarda ta’lim sohasida sezilarli islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, tizimda hal etilishi lozim bo‘lgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. O‘zbekiston oliv ta’lim tizimidagi asosiy muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlab quyidagi fikrlarni berib o‘tamiz.

Asosiy muammolar va ularning tahlili

1. Ta’limga bo‘lgan talab va o‘rinlar o‘rtasidagi nomutanosiblik

Har yili abituriyentlar soni ortib bormoqda, ammo mavjud oliv o‘quv yurtlarining soni cheklangan. Bu ta’lim olish uchun xorijga ketayotgan yoshlar sonining ortishiga olib kelmoqda, bu esa mamlakatda bilimli yoshlarning sonini ko‘payishiga to‘siq bo‘ladi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, har yili oliv ta’lim muassasalariga qabul qilinadigan abituriyentlarning atigi 20-25 foizi davlat grantlari asosida o‘qishga kirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda[1].

2. O‘qituvchilar salohiyati va dars sifatining pastligi

Ko‘plab o‘quv darslari eski metodlarga asoslangan, XXI-asr texnologiyalaridan foydalanishdagi xatoliklar, zamonaviy bilimlar va texnologiyalarni yetarlicha o‘zlashtirmagan professor-o‘qituvchilar ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning 40 foizi o‘qituvchilarning dars berish uslubidan qoniqish hosil qilmaydi.

3. Ilmiy-tadqiqot ishlarining sustligi

O‘zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishlariga ajratilayotgan mablag‘ YaIMning atigi 0,16 foizini tashkil qiladi. Bu esa oliv ta’limni ilmiy asosdan uzoqlashtiradi, xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar yetishishiga to‘sinqilik qiladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bu ko‘rsatkich 2-3 foizni tashkil etadi[3].

4. Korrupsiya va baholash tizimidagiadolatsizlik

Test natijalari yoki baholashdagi tanish-bilishchilik holatlari talabalar orasida ishonchsizlikni kuchaytiradi, bilimli yoshlar esa e’tibordan chetda qoladi.



So‘rovnomalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning 30 foizi baholash tizimidaadolatsizlik holatlariga duch kelgan[4].

5. Amaliy tajriba va kasbga yo‘naltirish yetishmovchiligi

Talabalar nazariy bilimni o‘rganib, amaliy ko‘nikmalarini o‘zlashtira olmaydilar. Ish beruvchilar esa mutaxassislarni amaliy tajribaga ega bo‘lishini talab qilmoqda. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarini bitiriganlarning 50 foizdan kamrog‘i o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ish topa oladi.

6. PISA natijalari va ta’lim sifatining pastligi

2022-yilgi PISA xalqaro baholash natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston o‘quvchilari matematika, o‘qish va tabiiy fanlardan o‘rtacha 66 davlat ichida oxirgi o‘rinlardan birini egalladi. Bu maktab ta’limi bilan birga oliy ta’limga kirgan yoshlarning bilim darajasi ham sust ekanini ko‘rsatmoqda.

Statistika: O‘zbekistonning matematika bo‘yicha o‘rtacha balli — 379 (OECD o‘rtacha ko‘rsatkichi – 472 ball), o‘qish bo‘yicha esa 352 ball bo‘lgan.

Yechimlar va takliflar

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi muammolarni hal etish kompleks yondashuvni talab etadi.

Birinchidan, ta’lim infratuzilmasini kengaytirish va inklyuzivlikni ta’minalash, yangi oliy ta’lim muassasalarini tashkil etish va masofaviy ta’lim platformalarini rivojlantirish lozim.

Ikkinchidan, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va motivatsiyani kuchaytirish, malaka oshirish kurslarini tashkil etish va zamonaviy o‘qitish metodikalarini joriy etish muhim.

Uchinchidan, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va innovatsiyalarni rag‘batlantirish, ilmiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini yaratish zarur.



To‘rtinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta’minlash, qabul jarayonlarini shaffoflashtirish va elektron baholash tizimlarini joriy etish muhim.

Beshinchidan, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish, amaliyot soatlarini ko‘paytirish va ish beruvchilarning talablarini hisobga olgan holda kasbiy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish lozim.

Oltinchidan, ta’lim sifatini oshirish va xalqaro integratsiyani kuchaytirish, o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va universitetlarning xalqaro reytinglarda o‘rin olishi uchun sharoit yaratish zarur.

Tavsiyalar:

- Oliy ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni kompleks nazoratini kuchaytirish.
 - Ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish.
 - Oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va o‘qituvchilarni qayta tayyorlash kurslarini sonini ko‘paytirish.

Xulosa O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining zamonaviy holatini kompleks tahlil qilish asosida uning asosiy muammolarini aniqlashga va ularni hal etishning istiqbolli yo‘llarini ishlab chiqish uchun amaly ishlarni chuqurroq olib borish va natijalarni qiyosiy taxlil qilish muhim hisoblanadi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tizim oldida turgan asosiy vazifalar – ta’lim sifatini oshirish, ilmiytadqiqot salohiyatini kuchaytirish va xalqaro ta’lim makoniga integratsiyalashuvni jadallashtirishdan iborat. Ta’lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar malakasini oshirish, innovatsion o‘qitish usullarini joriy etish va korrupsiyaga qarshi samarali kurashish orqali oliy ta’lim tizimining raqobatbardoshligini ta’minlash mumkin. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim sohasidagi siyosatni shakllantirish, o‘quv jarayonini takomillashtirish va kelgusida ilmiy izlanishlar olib borish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.



Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 08.10.2019-yildagi "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-sod farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. Axmedov A.A. Talabalarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari.//Pedagogik mahorat - Buxoro, 2023. №3. – B.176-179. (13 00 00 №23)
3. I.Ismailov, (2021). "Oliy ta'lif tizimida mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari." Oliy ta'lif va innovatsiyalar jurnali, 2(1), 45-52.
4. Dilova N.G. Ta'lif sifatini oshirishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati // Ta'lif jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishda ta'lif sifatini boshqarish muammolari: Xalqaro anjuman materiallari. – Qo'qon, 2022. – B. 38-41.
5. Khujakulova N. R. Economic Efficiency of Using Innovative Technologies In the Cultivation of Medicinal Plants //The Journal of Economics, Finance and Innovation. – 2023. – C. 198-202.
6. Xolmuratov Shaxriddin Baxriddinovich "O'quvchilar bilim darajasini baholashning interaktiv metodlari ta'lif tizimida innovatsion yondashuvlar" / ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI. GULISTON-2023 B. - 198-200
7. Rashidovna, Madaminova Khusnida. "DEVELOPMENT OF INDEPENDENT THINKING SKILLS OF CHILDREN IN A PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 44-47
8. www.Statistika.uz
9. www.Lex.uz
10. www.sifat.gov